



**Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan
foydalanishning ahamiyati**

Hamrayeva Muhayyo Erkin qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogik instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi

Tog'ayeva Sevinch Komiljon qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogik instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Tel: +998 91 322 28 38

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarini to'g'ri tashkil etish, darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matematika, didaktik prinsiplar, didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lim.

Abstract: This article talks about the correct organization of primary school mathematics lessons, the use of didactic games in lessons and their importance.

Key words: mathematics, didactic principles, didactic games, modern education.



Аннотация: В данной статье говорится о правильной организации уроков математики в начальной школе, использовании на уроках дидактических игр и их значении.

Ключевые слова: математика, дидактические принципы, дидактические игры, современное образование.

KIRISH

Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetgazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir. Bilamizki, ta'lim jarayoning asosiy poydevorini boshlang'ich ta'lim tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limni sifatli tashkil etish, darsni qiziqarli va mazmundor o'tkazish o'quvchilarni nafaqat boshlang'ich ta'limga, balki o'rta va oliy ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi desam mubolag'a bo'lmaydi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilari barcha fanlarni birdek yaxshi o'zlashtirishi kelajakda yangi bilimlarni egallashiga zamin yaratadi. Jumladan fikrlashga undaydigan, tasavvurni shakllantiradigan, diqqatni jamlaydigan va xotirani charxlaydigan matematika fanini yoshlikdanoq o'rganish kelajakdagi tanlangan har bir soha uchun tamal toshi vazifasini o'taydi desam adashmagan bo'laman. Shuningdek matematika fani o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirish, ularning o'z fikrlarini erkin holda aniq va to'g'ri ifoda etish uchun xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga matematikani o'rganishning keng imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI



Ushbu maqolada S. Qurbonov "Didaktik o'yinlar", M.E.Jumayev "Matematika o'qitish metodikasi" va S.Alixonov "Matematika o'qitish metodikasi" nomli kitoblaridan foydalanildi. Bu kitoblar o'quvchilarga matematikaga bo'lgan qiziqishini, faolligini oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Boshlang'ich sinf uchun asosan ona tili, o'qish, matematika va chet tili fanlari uchun kata soatlar ajratiladi. Xususan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitishga haftasiga 5soatdan vaqt ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan o'quv materiallari bosqichma-bosqich o'rgatila boshlaydi va murakkablik darajasi ortib boradi. Masalan, 1-sinfda 0dan 100gacha bo'lgan sonlarni raqamlash, 100ichida sonlarni xonadan o'tmasdan qo'shish ayirish o'rgatilsa, 2-sinfda 100 ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish va ayirish, jadval ichida ko'paytirish va bo'lish o'rgatiladi. Keying bosqichda esa 3-sinflarga 1dan 1000gacha sonlar va to'rt amal o'rgatilsa, 4-sinflarga 1dan 1000000gacha bo'lgan sonlar va ular ustida arifmetik amallarni bajarish kabi mavzular asosida o'qitiladi. 1-sinf o'quvchilari o'quv yilining 1-yarim yilligida 1dan 20gacha bo'lgan sonlar bilan tanishadilar va sanash malakasini oshiradilar.

Maktabga endigina qadam qo'ygan bola maktabgacha ta'lim davridan o'tib kelganligi tufayli ham ular tartib chegarasini biro z unutadilar. Chunki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola uchun qat'iy intizom chegarasi belgilanmaydi va bola o'zi istagan ish bilan mashg'ul bo'ladi. Ya'ni 1-sinf o'quvchilari uchun o'ta qattiqqo'llik bolani darsga jalb qilishning yechimi bo'la olmaydi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi 1-sinf o'quvchilariga mehribon, shirinso'z, yaxshi tinglovchi va psixolog bo'lishi lozim. Bog'chadan endigina maktabga qadam qo'ygan bolakay o'yinqaroq bo'lganligi tufayli ham ularni darsga qiziqtirish ancha murakkab bo'ladi. Ayniqsa, o'quvchilarni matematika darslariga qiziqtirish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.



Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos didaktik prinsiplari mavjud. Shuning uchun ham o'quvchilarga o'quv materialini tushuntirish metodlarini to'g'ri tanlashda didaktik prinsiplarga amal qilish lozim. Didaktik prinsiplar quyidagilar:

1. Ilmiylik prinsipi
2. Ko'rsatmalilik prinsipi
3. Onglilik prinsipi
4. Aktivlik prinsipi
5. Puxta o'zlashtirish prinsipi
6. Sistemalik prinsipi

Bu prinsiplarning har biri muhim hisoblanib, ular alohida vazifaga ega. Har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bu prinsiplar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, darslarda aniqlik va mazmundorlik asosida didaktik o'yinlarni shakllantirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf darslarida didaktik o'yinlarni qo'llashning bir qancha tartib qoidalari mavjud. Didaktik o'yin qo'llashda bu tartib qoidalarni nazardan chetda qoldirmaslik maqsadga muvofiq. Ulardan bir nechtasini misol qilib keltirishimiz mumkin:

- ✓ Didaktik o'yinni to'g'ri tanlash;
- ✓ Tanlangan didaktik o'yin mavzuga mos bo'lishi;
- ✓ Didaktik o'yinda barcha o'quvchilar ishtirok etishi yoki ishtirok etmaydigan o'quvchilar bo'sh qolib ketmasligi;
- ✓ Vaqt reglamentini hisobga olinishi;
- ✓ Didaktik o'yinlarni qo'llashda o'quvchilarning xavfdizligini ta'minlashni hisobga olish;
- ✓ Qo'llanilayotgan didaktik o'yin aniq maqsadga ega bo'lishi.



Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'yinni qoidasi, mazmunini, yakunini nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib anglab shu asosida harakat qiladi. Didaktik o'yinlar tuzilishiga ko'ra 2 asosiy guruhga bo'linadi: syujetlirolli o'yin va o'yin – mashqlar. Syujetli-rolli o'yin biror syujetga asoslanadi, ro'llarga bo'linadi, o'yin harakteri va qoidasi bo'ladi. Masalan: "Kema marshrutini aniqla", "Telefon", "Telegraf", "To'p kimga beriladi?" kabilar.

O'yin- mashqlarda faqat alohida o'yin elementi kiritgan bo'lib, yoki topishmoq, biror qoida yoki o'yinning biror harakati olinadi. Bunday o'yinlarga "Zanjir", "Jim", "Matematik estafeta", "Doiraviy misollar", "Uychani to'ldir" kabilar kiradi. Bu tur o'yinlarni tashkil qilish oson, uni o'tgazishga kamroq vaqt ketadi, lekin o'quvchilarda syujetli-rolli o'yinlar o'yin-mashqlarga ko'ra ko'proq qiziqish uyg'otadi. O'yindagi o'quvchilarning o'quv – bilish faoliyatiga ko'ra o'yinlarni yana bir necha turga ajratish mumkin:

1. O'quvchi faqat ijrochi sifatida qatnashadigan o'yinlar: bunda o'quvchilar namunada ko'rsatilganidek harakat qiladilar. Masalan: "Naqsh tuzamiz" o'yini kabi.

2. O'tilgan bor mavzuni esga olib, takrorlashni talab qiladigan o'yinlar. Bunda masalan o'quvchilarning arifmetik amallarni bajarish yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalari mustahkamlanadi.

Bunday o'yinlarga "Matematik baliqchi", "Eng yaxshi uchuvchi", "Parashutni qo'ndir" o'yinlar kiradi. Biror bir narsani o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar. Bunday o'yinlarda o'quvchilar berilgan masala va misolni ularga mantiqiy bog'liq bo'lgan boshqa masala va misol bilan almashtiradilar.

Tanlangan didaktik o'yin yuqoridagi talablarni bajarsa, demak pedagog to'g'ri tanlov qilgan bo'ladi. O'quvchilarni darsga qiziqitirishda foydalaniladigan ko'plab didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ularning biri bilan tanishamiz.

"O'z joyingni top" o'yini



O'yinning maqsadi: o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, tezkor va og'zaki hisoblashni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: misollar yozilgan kartochkalar, kartochkalarni ilish uchun doska, o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda raqamlangan kartochkalar.

O'yinni tashkil etish: Dastlab o'qituvchi dars boshlanishidan avval raqamlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilar o'tiradigan o'rindiqlarning orqa tomoniga yopishtirib chiqadi. Misollar yozilgan kartochkalar esa doskaga yopishtiriladi. Misollarning javobi o'rindiqlar orqasidagi raqamlar bilan bir hil bo'lishi lozim. Dars boshlanishidan oldin o'quvchilar sinfxonasiga kirib, har biri bittadan kartochkani tanlaydi va misolni yechadi. Yechgan misolni javobi bilan bir hil son yozilgan o'rindiqqa o'tiradi.

Bu didaktik o'yinni qo'llash orqali o'quvchilar dars boshlanishidan oldin darsga qisqacha aqliy tayyorgarlikni o'tkazadilar hamda o'quvchilar o'z joylarini egallaydilar. Bu orqali biz ham matematika faniga qiziqtirish ham bolalarni hech qanday talashishlarsiz o'z joyini topishiga erishamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda fan bilan bog'liq didaktik o'yinni tanlash va o'quvchilarni turli usullar bilan darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun o'qituvchida ham biroz intilish va bolarga xos bo'lgan qiziqish bo'lsa kifoya. Shundagina biz darsni sifatli tashkil etib, ta'lim tizimini yanada samaraliroq bo'lishiga hissa qo'sha olamiz. Yangi O'zbekistonni bunyod etish yoshlar qo'lida ekan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!".



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Qurbonov "Didaktik o'yinlar" Urganch-2011
2. M.E.Jumayev "Matematika o'qitish metodikasi" Toshkent-2016
3. S.Alixonov "Matematika o'qitish metodikasi" Toshkent-2011
4. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'.Yoldoshev, S.A.Usmonov Toshkent 2004 Y
5. N.U.Bikboyeva, E.Ya.Yangiboyeva va boshqalar, "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", T.: "O'qituvchi", 2005;